



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR ASOSIY MANBALAR

Tursunova Malika Sanjar qizi

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi”

yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada axloqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy hisoblangan bir nechta manbalar keltirilgan bo'lib, ularning yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *axloq, madaniyat, qadriyat, tarbiya, fazilat, adolat, poklik, mehnatsevarlik, sahiylik, vijdon, sadoqat, xulq-atvor, o'zlik.*

Annotation: *The article presents several sources that are considered key in the formation of moral culture, discusses their role and importance in the lives of young people.*

Keywords: *morality, culture, value, upbringing, virtue, justice, purity, hard work, generosity, conscience, loyalty, behavior, identity.*

Аннотация: *в статье рассматриваются несколько источников, которые считаются ключевыми в формировании нравственной культуры а также рассматривается их роль значение в жизни молодежи.*

Ключевые слова: *Мораль, культура, ценность, воспитание, добродетель, справедливость, чистота, трудолюбие, щедрость, совет, верность, поведение, идентичность.*

Mustaqil yurtimizni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizi sifatida umuminsoniy qadriyatlar tushuniladi, biz ularga vatanparvarlik, sodiqlik, xalqimiz ma'naviy me'rosini mustahkamlash hamda keng qamrovli tushuncha- ma'naviyatni kiritishimiz mumkin. Inson ma'naviyati uning odob-axloqi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloqli inson esa o'zini qattiq hurmat qiladi, yurish-turishi, gap-so'zlari, amallarini doim nazorat qiladi, boshqalar dilini og'ritmaydi, o'z muomalasi bilan boshqalarga o'rnak bo'ladi. Kishi o'z hayotida axloqiy barkamollikka qancha ko'p intilsa, shunchalik o'z xato va kamchiliklarini anglab boradi. Shuning uchun ham yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimiz ayniqsa, talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirish bugunning alohida e'tiborga molik masalasi bo'lib qolmoqda. Buning uchun bizga bir qancha manbalar asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, asrlar davomida odob-axloq mavzuyida qanchadan-qancha kitoblar, odobnomalar, nasihatnomalar, pandnomalar, rivoyatlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi esa bunday xazinalarning eng qadimgi va eng asosiy manbasi bo'lib, unda odob-axloqqa doir bebaho fikrlar, qarashlar, g'oyalar mujassam. Xalqog'zaki ijodi namunalari hisoblangan xalq musiqasi (folklori), xalq teatri, raqslari, qog'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati, hunarmandchilik



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



namunalari, yaratilgan qissa, doston, rivoyatlarda muayyan shaxs faoliyati, uning qahramonligi-yu donishmandligi, insonlarga xos bo'lgan nazokat, kamtarlik, muhabbat, vafu va sadoqat, aql-idrok, odillik vaodamiylik, oliyhimmatlilik va mehribonlik kabi ezgu insoniy fazilatlar ulug'lanadi.

Eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik hisoblangan "Avesto" da yaxshilik va yomonlik tushunchalari orqali yer yuzida mavjud bo'lgan yaxshilik va yomonlik dunyosining mohiyati ochib berilgan. Zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi adolat o'lkasining qaror topishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yodgorlikda zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi, inson doimi sahovatli va mehnatsevar bo'lishi kerakligi aytilgan. Axloqiylikning asosi, sahovatlilikning belgisi- mehnat deb ko'rsatilib, mehnat tufayli barcha yomon xislat, yomonlikva yovuzliklardan qutulish mumkin degan g'oyaning mohiyati ochib berilgan. Avestoning asosiy qahramonlari hisoblangan Ahura Mazda va Axriman o'rtasidagi doimiy kurash haqiqiy hayotda ham mavjud bo'lib, yaxshilik doimo g'alaba qozonishi, buning uchun inson mard, jasur, kuchli, adolatli, sahiy va kamtar bo'lishi hamda bunday insonlarning joyi Adolat o'lkasida ekanligi g'oyat go'zal tarzda ifodalangan. [1]

Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda Sharq allomalarining badiiy hamda ilmiy asarlaridan foydalanish ko'zlangan maqsadga tezroq erishishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha asalar, rivoyat, nasihatnomalar va boshqa yozma manbalarda axloq- odob masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shunday noyob hamda qimmatbaho asarlardan biri Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridir. Asarda qaysi insonki, o'zida quyidagi 12 tug'ma xislatni birlashtirgan bo'lsa u axloqli odam bo'la oladi deyiladi. Ular quyidagilar:

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;
2. Barcha masalani, muhokama va mulohazani tez va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi aytilgan fikrlarining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;
3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, bilgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;
4. Zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezisi bilan shu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;
5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrlari va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;
6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



7. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin;

8. Haqiqatni va ahaqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

9. Ruhining g'ururini va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi va tabiati bilan past ishlardan yuqori va aaliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin;

10. Dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

11. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolat bilan qaraydigan bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;

12. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin. [2]

Alisher Navoiy ijodida ham ma'naviy dunyo, insonning go'zal xulq-atvori, o'zligini anglashi kabi masalalar jamlangan. Shulardan eng yaxshi va o'rinli namuna "Hayrat-ul abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dir. Bu asar insonni o'zligini anglashiga, nafsini tiyishiga, dunyo zeb-ziynatlariga alanib, ilm yo'lidan chalg'imaslikka, go'zal xulq-odobga ega bo'lishiga, insonlarga nisbatan muloyim, rahmdil, saxiy, himmatli, adolatli bo'lishga chorlaydi. Asarda shunday jumlar borki, ular insonning to'g'ri yo'ldan og'maslikka ruhlantirib turadi: "ey inson, butun borliqni yaratgan Tangri senga qanday yaxshiliklar ko'rsatyapti, ehsonlar ne'matlar beryapti. U seni hayvon yo o'simlik, biror jonsiz narsa qilib emas, senga lutf ko'rsatib inson qilib yaratdi, senga ko'rish uchun ko'z, eshitish uchun quloq, ushlab uchun qo'l, yurish uchun oyoq, nafas olish uchun dimog' berdi. Senga ne'matlar dasturxonini ochib qo'ydi, seni azizu Musharraf qildi va "Shukur qilish bilan ne'matlar ortadi" deb aytdi. Aynan mana shu shukur qilish insonga xos bo'lgan ezgu fazilat bo'lib, uning axloqini namoyon qiluvchi omildir. [3]

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ham axloq va axloqli bo'lish to'g'risida g'oyat qimmatli va betakror fikrlar jamlangan. Unda yaxshi xulqni egallash uchun ota-ona, muallim ustozlarning nasihatlarini jon qulog'i bilan tinglab, doim xotirada saqlamoq kerak, yaxshi xulqli insonlar bilan do'st bo'lish, yomon xulqli insonlardan yiroq bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. "Axloqi hasana"- yaxshi xulqlar bilan xulqlanmak, inson har qanday xulqdan o'ziga xulosa chiqarishi lozimdir. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam: "Islomda buzuqlik yo'qdur, buzuqlikni ustiga oluv ham yo'qdur. Islomda eng mo'tabar kishilar yaxshi xulq egalaridir" -demishlar.

Yaxshi birla yursa, har kim maqsadi hosil bo'lur,
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur. [4]

Asarda insonlarga eng muhim: shon-sharaf, hurmat-e'tibor keltiradigan tarbiya axloq tarbiyasidir deyiladi. Eng yomon kishilar – olgan ilmiga amal qilmaydiganlardir. Bunda asosan ustoz-muallimlarning egallagan ilmlariga doim amal qilishlari, agar ularning o'zi amal qilmasa bu albatta shogirdlari tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Binobarin, go'zal xulq xislatlaridan biri- sabr haqida ham ta'sirli hikoyalar borki, sabr ayniqsa, yoshlarda, talabalarda o'z kasbinining sir-asrorlarini sabr qanoat bilan o'rganish, duch keladigan qiyinchiliklarni sabr bardosh bilan yengib o'tish, egallagan kasbining mashaqqatiga sabr bilan yondashish, ilm o'rganish va o'rgatishda sabrli va adolatli bo'lish tushuniladi. Sabrli kishi albatta niyatiga yetadi, sabr shodlikning kalitidir.

Shuningdek, bu asarda axloqiy madaniyatning asosi bo'lgan fazilatlar: ilm o'rganish, sabr, qanoat, vijdon, vatanni suyish, rostgo'y bo'lish, sadoqat, adolat oliyhimmatlilik, muhabbat va aksincha, yomon xulqlar, g'azab, jaholat, adovat, g'iybat haqorat, hasad, nifoq, zulm haqida ham ajoyib matnlar keltirilgan.

Sa'diy Sgeroziyning "Guliston" asari ham axloqiy –tarbiyaviy ruhda yozilgan asar bo'lib, undagi har bir hikoyat insonni yaxshilikka, adolatli bo'lishga, odillikka, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishga undaydi. Quyidagi hikoyatlar shu asardan namunadir:

Luqmoni hakimdan: "Odobni kimdan o'rganding?" deb so'radilar. Luqmon javob berdi: "Odobni beodoblardan o'rgandim, ularning harakatlaridagi menga ma'qul bo'lmagan narsalardan o'zimni saqladim"

Biror esli kishiga hatto hazil so'z aytsang
U shundan ham o'ziga chiqaradi xulosa.
Ammo axmoq kishiga yuzlab hikmat o'rgatsang
Barchasi uning uchun tuyilar hazil narsa. [5]

Ya'ni axloqli, tarbiyali insonga bir hazil so'z aytsang ham o'ziga xulosa chiqaradi, har bir so'z va amaldan ijobiy hikmat izlaydi, tarbiyasiz insonga esa qancha hikmat, nasihat aytmagin o'ziga xulosa qilmaydi, mas'uliyatni sezmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Axloq individual va ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi. Bu shaxsning xatti-harakatlari, qarorlari va munosabatlarini belgilaydigan qadriyatlar, me'yorlar va prinsiplar yig'indisidir. Axloqli bo'lish shaxsning o'ziga, boshqalarga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatini anglatadi. Ijtimoiy miqyosda esa axloq jamiyatning uyg'unligi, adolati va taraqqiyotini ta'minlaydi. Axloqiy madaniyat axloqiy qadriyatlarning kundalik hayotda, xulq-atvorda va munosabatlarda namoyon bo'lishidir. Bu faqat nazariy bilimlarni emas, balki ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Axloq va axloqiy madaniyatni shakllantirish — bu shaxsning to'laqonli inson bo'lishi va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun fundamental asosdir. Bu jarayon doimiy sa'y-harakatlarni, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini, shaxsiy mas'uliyatni va sog'lom ijtimoiy muhitni talab qiladi. Shundagina biz axloqan yetuk va ma'naviy boy avlodni tarbiyalab, adolatli va farovon jamiyat qura olamiz.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K.Hashimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2005-yil 24-25-betlar. (41-46)
2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” “Kamolot” kutubxonasi Toshkent 2016-yil 287-288-betlar.
3. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” Toshkent 2006. G’.G’ulomnomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 376-bet
4. A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent 2004-yil. 10-11-betlar.
5. Sa’diy Sheroziy “Guliston” Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2018-yil 65-bet

